

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.




Bekobod shahar

3-umumta'lim maktabi

1-sinf

Matematika

«Qo'shiluvchilarning o'rnini almashtirish.»



Boshlang'ich sinf o'qituvchisi: Maxsudova

Saodatxon

Daminovna

Matematika 1-sinf (multimediya darsi)

Matematika -aql gimnastikasi.

Mavzu: Qo'shiluvchilarning o'rnini almashtirish .

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarga qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtirish bilan yig'indini o'zgarmasligi haqida bilim berish. O'quvchilarning mantiqiy tafakurini o'stirish , masala, misol yechish, amaliy mashg'ulot bajarish

O'quvchilarning DTS bo'yicha BKMLarini tekshirish. Iqtisodiy bilim berish kompyuter savodxonligini oshirish.

Tarbiyaviy: Oquvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishini ortirib borish. Matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish malakasini ostirish. Jonli tabiatni sevishga, ularga g'amho'r bo'lishga o'rgatish. Iqtisodiy tarbiya berish, tejamkor va tadbirkor bo'lishga o'rgatib borish. Darsda dostona munosabatlarni shakillantirib borish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimli, zukko bo'lishga, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish. Kasb tanlashga yo'naltirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Ko'rgazmali, tushuntirish, suhbat, savol javob, guruhlash, multimediya asosidagi interfaol metod.

Dars jihozi: kompyuter, proyektor, slayd, mavzuga oid rasmlar test savollar. Sonlar, geometrikshakllar, amaliy ish uchun tarqatmalar.

Fanlar aro bog'liqligi: o'qish, atrof olam, ingilis tili, mehnat, musiqa.

1.Tashkiliy qism.

2.Guruhlarga ajratish.

3.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

- 4.Dam olish daqiqasi.
- 5.Yangi mavzu bayoni .
- 6.Dam olish daqiqasi.
- 7.Yangi mavzuni mustaxkamlash.
- 8.Amaliy mashg'ulot.
- 9.Uyga vazifa.
- 10.Darsni yakunlash.

DARSNING BORISHI:

1. Tashkiliy qism.

O`quvchilarning darsga tayyorgarligini ko`rish, bugungi kun haqida suhbat o`tkazish. Hozir matematika darsi, sanashni, +, -, misol, masala, yechishni o`rganamiz.

-hozir qish fasli, qish 3 oy davom etadi, dekabr, yanvar, fevral; qishda kunlar sovuq bo'ladi, qattiq shamol bo'ladi, yomg'ir-qor yog'adi. $7+1=8$ bo'ladi. 8 soni - 8ta birlik, 1 xonali son, 8-dekabr - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni, qonunlar bayrami, bilim olish, mehnat qilish, dam olish qonunlariga amal qilish.

Darsning shiori:

Oz-oz o`rganib dono bo`lur,

Qatra - qatra yig`lib, daryo bo`lur.(A.Navoiy.)

**Og`zaki hisob:** 0 .....9, 9.....0, oralatib sanash, ingliz tilida shunday qaytarish, sonlarning toq, juftligini ta`riflash.

“Jim” o`yini - o'quvchilar ko'rsatilgan misollarning javobini abaklardan foydalanib ko`rsatishlari kerak.

7+2 4+5 6-2 3+7 5+3 8-1 9- 5 4-2

Mantiqiy masala: Bu shoxchada 5 ta qush,

U shoxchada 5 ta qush,

Uchib ketdi 2ta qush.

Qoldi endi nechta qush?

Oppoq tovuq don choqir,


Suv ichadi qorasi.

Qo`shilganda olasi,

Qancha bo'ldi hammasi?

2. O'tgan darsni mustahkamlash.

QO'SHISHNING HADLARI



$$3 + 2 = 5$$

3 — qo'shiluvchi 2 — qo'shiluvchi 5 — yig'indi

3 va 2 ning yig'indisi 5 ga teng.

3 — qo'shiluvchi

2 — qo'shiluvchi

5 - yig'indi | - yig'indi 3 + 2 - yig'indi

Har bir o`quvchiga uch bilan ikkining yig'indisi beshga teng bo'ladi degan iborani o`qitib chiqishni o`rgatish.

Ifodalarni o`qitish

$$4 + 5$$

$$8 + 2$$

$$6 + 1$$

$$3 + 4$$

DAM Olish DAQIQASI:

Biz maktabga boramiz, o`qiymiz, yozamiz, chizamiz, o`ynaymiz,
Biz maktabga boramiz, o`qiymiz, yozamiz, chizamiz, o`ynaymiz.
Qayiq kelsa suzamiz, orolchaga yetamiz!

3.Yangi mavzu: Qo`shiluvchilarning o`rinlarini almashtirish.

- O`quvchi - Ustoz, men bugun tushumda qor boboni ko`rgan edim. Ertalab qarasam manabu xat va qorbobo o'yinchoq turibdi. Xatning ustiga 1-"B" sinfiga deb yozilibdi.



TABRIKNOMA. Assalomu alaykum menning shirindan shaker bolajonlarim! Sizlarni kirib kelayotgan yangi 2014-yil "Sog`lom bola" yili bilan tabriklayman! Men sizlarga ajoyib sovg`a jonatdim. Agar topishmog`imning javobini to`g`ri topsangiz sovg`amning nomini bilib olasiz. "qishin yozin, bir xil kiyimda" Men borgunumcha o`z bilimingiz, zukkoligingiz, qo`yasiz. Topishmoqning javobi "archa", nechta tovush, nechta harfdan iborat ekan? 4ta tovush, 4ta harfdan iborat.

O`qituvchi - kelinglar bugungi darsimizni yangi yil archasini bezashga bag`ishlaymiz. Dars davomida qorbobomiz jo`natgan o`yinchoqlar bilan archani bezab boramiz. O`yinchoqlarni 3 ta savatga teng bo`lib soldim. Siz ham uch guruhga bo`linasiz;

1. Qor parchasi**2. Qorbobo****3. Qorqiz**

Kim berilgan topshiriqni to'g'ri bajarsa archaga o'yinchoq ilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Daftar bilan ishlash: 10- dekabr.

Husnixat: 10 sonini ikki qator yozib chiqish.

Ijodiy ish. Har bir guruhdan 2tadan o'quvchi chiqib, o'zi misol tuzib, yozadi;


Masalan: $10-5$ $5+4$ $4-2$ $4-2+3$ $8+2-3$

O'tirgan o'quvchilar ham o'zlari ijod qilishadi. Tez va to'g'ri bajargan o'quvchilar archaga o'yinchoq ilishadi.

Qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtirish.

QO'SHILUVCHILARNING O'RINLARINI ALMASHTIRISH

$$2 + 1 = 3$$



$$1+2=3$$

$2+1=3$ $1+2=3$ amaliy mashg'ulot orqali tushintiriladi. Demak, agar qo'shiluvchilarning o'rnini almashtirsak ham yig'indi o'zgarmaydi.


1- Masala.(og'zaki) slayd -

1.




$$5 + 4$$

$$4 + 5$$



$$5 + 2$$

$$2 + 5$$





$$6 + 3$$

$$3 + 6$$

4.Yangi mavzuni mustahkamlash:

Bugungi darsda do'stlik g'alaba qozondi. Yangi yil, archasi haqida she'rlar o'qib berishdi.



6. Uyga vazifa:4-misol (yozma) slayd.
Rasmlardagi geometric shakllarni taqqoslash.
4. Taqqoslang:

